"Navoiyazot" AJ raqamlarda: transport va logistika

// 30 October 2024 yil
https://special.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/navoiyazot-raqamlarda-transport-va-logistika



Bugungi kunda "Navoiyazot" AJ da avtotransport vositalarining umumiy soni 165 tani tashkil etadi. Ularning 78 tasi yuk, 28 tasi yengil avtomobillar, 23 tasi avtobuslar, 36 tasi esa maxsus texnikalardan iborat.

Bundan tashqari korxona hisobida 53 ta traktor, 8 ta payvandlash agregati, 20 ta elektro va avtopogruzchik, 5 ta kompressorlar mavjud bo‘lgan avtotransport sexi ham faoliyat olib bormoqda.

Joriy yilning o‘tgan 9 oyi davomida 1 106 658 tonna kimyoviy mahsulotlar 18 073 dona vagonlar orqali tashilib, xaridorlarga yetkazib berildi hamda 84 141 tonna yuk korxonaga 1 237 dona temir yo‘l vagonlari orqali olib kelindi.

Korxonada maxsus avtotransport vositalari va mexanizmlariga bo‘lgan ehtiyojni qanoatlantirish hamda avtotransport parkini yangilash maqsadida 2 dona 25 tonnali avtosamosval va 2 dona gidrobolg‘ali ekskavatorlar sotib olindi.

"NAVOIYAZOT"AJ AXBOROT XIZMATI